

**ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ОРҚАЛИ САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИ
МИКРОМОЛИЯЛАШТИРИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ**

Ко'chkinov Abbos Yusuf o'g'li

TDIU, 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20152764>

Annotatsiya. Mazkur tezisda tijorat banklari orqali sanoat korxonalarini mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Amaldagi tizimdagi muammolar tahlil qilinib, innovatsion mikromoliyalashtirish modeli taklif etilgan. Tadqiqot natijasida modelning iqtisodiy samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mikromoliyalashtirish, tijorat banklari, sanoat korxonalari, kreditlash, innovatsion model, raqamli moliya.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarini moliyalashtirishda tijorat banklari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, kichik va o'rta sanoat korxonalari uchun mikromoliyalashtirish tizimi moliyaviy resurslarga kirishni ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, mazkur tizimda bir qator muammolar mavjud.

Jumladan, garov ta'minotining yetishmasligi, kredit risklarining yuqoriligi, foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi hamda uzoq muddatli moliyaviy resurslarning cheklanganligi sanoat korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida innovatsion mikromoliyalashtirish modeli taklif etiladi. Ushbu model quyidagi elementlardan tashkil topadi: raqamli kredit platformasi, sun'iy intellekt asosidagi kredit skoring tizimi, moslashuvchan kredit shartlari hamda real vaqt monitoring tizimi. Model samaradorligini baholash quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$E = \frac{\alpha Q - \beta B + \gamma X + \delta D}{R + S}$$

Mazkur modelga ko'ra, mikromoliyalashtirish samaradorligi ishlab chiqarish, bandlik, eksport hamda raqamlashtirish samaradorligiga bog'liq holda aniqlanadi. Mazkur modelga ko'ra, mikromoliyalashtirish samaradorligi ishlab chiqarish hajmi, bandlik darajasi, eksport ko'rsatkichlari hamda raqamlashtirish samaradorligiga bog'liq holda aniqlanadi. Ushbu bog'liqlikni amaliyotda ham kuzatish mumkin.

Xususan, ATB "InFinBank" faoliyati misolida mikrokreditlar ajratilishi natijasida kichik sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda eksport faoliyatining faollashuvi kuzatilgan.

Shu bilan birga, bank tomonidan raqamli xizmatlarning joriy etilishi kredit ajratilish jarayonini tezlashtirib, operatsion xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada, ajratilgan moliyaviy resurslar nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishiga, balki bank faoliyatining samaradorligini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa taklif etilgan modelning amaliy ahamiyatini va uning real sektorда qullanilishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Taklif etilgan innovatsion mikromoliyalashtirish modelini amaliyotga joriy etish bank tizimi va sanoat korxonalari faoliyatida sezilarli ijobiy natijalarga olib keladi.

Avvalo, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan jarayonlarning qo'llanilishi natijasida kredit ajratish tezligi oshib, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanadi.

Bu esa korxonalar uchun moliyaviy resurslarga tezkor kirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, kreditlash jarayonlarining optimallashtirilishi operatsion xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Bu holat banklarning moliyaviy samaradorligini oshirib, resurslardan yanada oqilona foydalanish imkonini beradi.

Model doirasida risklarni boshqarish mexanizmlarining takomillashtirilishi, xususan AI asosidagi skoring va monitoring tizimlarining joriy etilishi kredit risklarining pasayishiga xizmat qiladi. Natijada muammoli kreditlar ulushi kamayib, kredit portfelining sifati yaxshilanadi.

Yuqoridagi omillar yig'indisi natijasida tijorat banklarining foydasi ortadi, shu bilan birga sanoat korxonalarining ishlab chiqarish va investitsion faolligi ham oshadi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan innovatsion mikromoliyalashtirish modeli sanoat korxonalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu model raqamli texnologiyalar, samarali risk boshqaruvi va moslashuvchan kreditlash mexanizmlarini o'zida mujassam etgan holda tizimni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etish orqali nafaqat tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish, balki sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda eksport salohiyatini oshirish mumkin. Shu tariqa, mikromoliyalashtirish tizimini takomillashtirish umumiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-580-son, 2019-yil 5-noyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklari kreditlari va depozitlari bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2025.
3. Yunus, M. Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty. – New York: PublicAffairs, 2003.
4. Armendáriz, B., Morduch, J. The Economics of Microfinance. – Cambridge: MIT Press, 2010.
5. World Bank. Microfinance and SME Development Report. – Washington, 2022.